

TA'LIM MUASSASALARIDA YOSHLARNING VATANPARVARLIK TARBIYASINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH

Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti

katta o'qituvchisi zahiradagi Mayor

ALIJONOV BAXTIYOR XOSHIMOVICH

Farg'ona davlat universiteti

harbiy ta'lim fakulteti 2-bosqich talabalari

Mamajonov Firuzbek Baxrom O'g'li

Qosimov Sarvar Adham o'g'li

Abdurahmonov Saidjon Erkinjon o'g'li

Annotatsiya

Ushbu maqolada yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida Vatan himoyasiga tayyorlash ishlarining tubdan o'zgarishi harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni, shuningdek, tashkiliy-uslubiy jihatlardan to'liq foydalanishni taqozo etishi yoritilgan. Buning uchun, tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligini tahlil qilish, an'anaviy tarbiya shakllarini tanlash va mustahkamlash, hozirgi sharoitda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi vazifalarini to'la amalga oshira oladigan yangi shakl va uslublarni izlash va ularni hayotga tatbiq etish lozim. Bunda asosiy e'tiborni harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining shakl va uslublarini tashkiliy jihatdan ta'sirchanligiga va ularni Vatan himoyachisi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilganligiga qaratish zarur.

Kalit so'zlar: Harbiy vatanparvarlik. Qurolli Kuchlar. Harbiy texnik tayyorgarlik. Axloq. Vatan. Yoshlarni Vatan himoyasiga tayyorlash. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi. Mudofaaga ko'maklashuvchi tashkilot.

O'quv yurtlarida ta'lim va tarbiya olayotgan yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati, ta'lim boshqarmalarining muhim faoliyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Yoshlarga ularning bolalik yillaridan boshlab, O'zbekiston xalqining boy an'analari va milliy qadriyatlari, xalqimizning buyuk o'tmishi xaqidagi bilimlarni, shuningdek, o'z Ona-Vatani O'zbekistonning sadoqatli himoyachilari bo'lishini ongli ravishda his qilishlarini singdirib borish kerak.

Hozirgi vaqtda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni va jatumani, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy islohatlarga bog'liq bo'lgan bir qator omillar bilan boyitilishi lozim.

Bu omillar quyidagilardir:

mamlakatda amalga oshirilayotgan islohatlar jatumanidagi inson, ya'ni shaxs rolining o'sishi;

uning mamlakat mudofaasidagi ahamiyati;

harbiy xizmatni tashkillashdagi tub o'zgarishlar;

zamonaviy qurolli kurashlar shakl va usullarining takomillashuvi va boshqalardir.

Hozirgi sharoitda harbiy faoliyatni murakkablashib borishi, bugungi kun jangchisiga qo'yilayotgan talablarning o'sishi, o'quvchi Yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga yangicha nazar bilan qarash va yondoshishni taqozo etayotir. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasidagi qadriyatlar va sifatlarni shakllantirishda asosiy yetakchi rol ta'limga, ya'ni o'qitishga tegishlidir. Lekin bu inkor etilmaydigan nazariy xulosa, fan asoslarini o'qitayotgan o'qituvchilarning uslubiy materiallari va amaliy ishlarida to'la amalga oshirilmayapti. Umumta'lim fanlari o'qituvchilarining aksariyat qismi harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi vazifalariga yuzaki yondoshadilar va ko'p hollarda o'zlari o'qitayotgan fanlarning bu vazifalarni ychishdagi imkoniyatlarini tasavvur ham qilmaydilar. Vatan himoyachilarini tarbiyalash ishlariga pedagogik jamoalari tomonidan CHQBT rahbari, «Vatanparvar» tashkiloti, Mudofaa ishlari bo'limlari va yoshlar tashkilotlarining tor doiradagi faoliyatlari deb qaraladi. Lekin shu narsa aniqki, agar o'quvchilarning muhim hayot faoliyatlarining biri o'quv faoliyati tinchlikni saqlash, mamlakat mudofaasini mustahkamlash va uning himoyasiga shay bo'lish kabi yuksak g'oyalar bilan boyitilmasa, u holda ularni vaqtinchalik tadbirlar vositasida o'rnini to'ldirish samarasiz bo'lib chiqishi mumkin. Bo'lajak vatan himoyachisini tarbiyalash, eng avvalo vatanparvarlik tuyg'usidagi intilishlar bilan to'ldirilgan yoshlar turmush tarzini tashkillash demakdir. Bunga esa tarbiya muassasalarining o'zaro hamkorlikdagi harakatlari bilan erishish mumkin. Vatan himoyachisini tayyorlash tizimini tuzish va uning samaradorligini oshirish uchun Vatan himoyasiga shaylik singari insonning murakkab sifatlaridan biri va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining maqsad va vazifalarini bilish muhim ahamiyatga egadir. Vatan himoyasiga shaylikning tuzilishida, odatda ma'naviy-axloqiy, ruhiy, harbiy-texnik va jismoniy tayyorgarlik kabi sifatlar ajratib ko'rsatiladi.

Shunday bo'lsada, Vatan himoyasiga shaylik to'g'risidagi tasavvurlar bu sifatni barcha murakkab tomonlarini, uning butun xususiyatini ochib bermaydi. Bu shuni anglatadi, Vatanni o'z hayotini xavf ostiga qo'yib bo'lsada, himoya qilishga shaylikni rivojlantirishni, inson xarakterida alohida ijobiy sifatlarni shakllantirish bilan almashtirib bo'lmaydi. Shuning uchun ham Vatan himoyasiga shaylikni ta'minlovchi butun o'quv tarbiya jarayonini yaratish uchun u to'g'risida yaxlit bir tasavvurga ega bo'lish kerak.

Harbiy faoliyatga shaylik ko'rsatkichlarini 2 guruhga bo'lish maqsadga muvofiqdir. Bu umumiy va maxsus talablardir.

Umumiy talablar, bu integrativ belgilar bo'lib, ular Vatan himoyasiga shaylikning shakllanganligini ifodalab beradi. Ular quyidagilardir:

O'zbekiston Respublikasini himoya qilishga turg'un ishonch, o'quvchilar tomonidan o'z vatanparvarlik burchlarini chuqur anglash;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumatining tashqi va ichki siyosatiga, mamlakat mudofaasini va Qurolli Kuchlarini mustahkamlash bo'yicha olib borayotgan tadbirlarga ishonch;

O'quvchilarning yetakchi faoliyatlari o'qish, mehnat va sport bilan shug'ullanishlarining, vatanparvarlik yo'nalishida bo'lishi;

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safidagi ruhiy va jismoniy qiyinchiliklarni yengib o'tishga o'z-o'zini ongli ravishda tayyorlash;

Harbiy nizom talablari va komandirlarning buyruqlarini so'zsiz bajarishdagi qobiliyati, ularning Vatan topshirig'i deb qabul qilish, yurish-turishini boshqarish;

Harbiy intizom me'yorlari va talablarini har qanday sharoitda ham bajarishga shaylik;

Hayot uchun xavfli bo'lgan sharoitlarda ham qahramonlik namunalarini ko'rsata olishga shaylik.

Maxsus talablar vatan himoyasiga shaylikning alohida tomonlari yoki jihatlariga bog'liq bo'lib, bir necha guruhlariga bo'linadi.

Ma'naviy-axloqiy tayyorgarlikka bo'lgan maxsus talablar:

Vatanimiz mustaqilligining garovi bo'lgan Qurolli Kuchlarimiz harbiy qudrati har bir kishining mehnati bilan yaratilishi va uni yanada mustahkamlash uchun chuqur bilim, ko'nikma va malakalar, ijodiy faoliyat, intizomiylik va yuksak ish qobiliyati zarurligiga o'quvchilarning ishonchi;

Hozirgi zamon urushi xususiyatlarini, yangi qurollarni bilish, ulardan saqlanish malakalariga ega bo'lishi;

Haqiqiy jangovar vaziyatda uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchilik va mashaqqatlarni ongli ravishda chuqur anglashi;

Harbiy faoliyat va jangovar jamoa sharoitlariga ko'nikish malakalariga ega bo'lish;

O'z yurish-turishini boshqara olish, ba'zi bir tuyg'ularni (qo'rquv, sarosima, o'zini yo'qotib qo'yish) so'ndira olish, boshqa bir tuyg'ularni esa (Vatanga muhabbat, burch, dushmanga nafrat) kuchaytira olish qobiliyatlarining bo'lishi;

Ilmiy-texnik taraqqiyot ahamiyati va uning harbiy ishga ta'sirini, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasining mudofaa xususiyatini, zamonaviy jangovar texnika va qurollar tomonidan askarlarga qo'yilgan yuksak talablarni bilishlari;

Chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik asoslaridan bilim, ko'nikma va malakalarning bo'lishi;

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tuzilishi, qo'shin turlari haqidagi bilimlarga ega bo'lishi, texnika va qurollarga qiziqishi, biror bir harbiy

mutaxassislikni egallash uchun zarur bilim va malakalarning borligi va bu bilimlarni boshqa bir harbiy mutaxassislikka o'tkaza olish imkoniyati;

Yuqorida keltirib o'tilgan Vatanni himoya qilishga shaylik ko'rsatkichlari o'quvchilarni shakllantirish, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida vazifalar qo'yish uchun va ularni amalga oshirish uchun vositalar izlashda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Yuqorida aytib o'tilganlardan xulosa qilish mumkinki, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining maqsadini biror-bir jumla bilan ifodalab bo'lmaydi. Bu tarbiya ishlarining ushbu yo'nalishini ko'p qirraligi va murakkabligidan dalolat beradi, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining maqsad va vazifalari, tarbiyaviy jarayonining asosiy yo'nalishlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining har xil yoshlar guruhlariga muvofiq yondoshish tamoyili, avvalo, bu yoshlar guruhlar bilan, ularning qiziqishi va intilishlarini, hayotda egallagan mavqelari va ularning ezgu-niyat, maqsadlarini inobatga olib, tarbiya ishlarini olib borishni taqozo etadi.

Bizga ma'lumki, yoshlardagi ulg'ayishning har bir davrida ular uchun qiziqish uyg'otuvchi va ularning harakatini, intilishini ma'lum bir yo'nalishlarga yo'naltiruvchi omillar mavjud bo'ladi.

Harbiy- vatanparvarlik tarbiyasi jarayonida mana shu omillarni xisobga olib, o'z ishlarini amalga oshirgan holdagina, ko'zlangan natijalariga erishishi mumkin. Tarbiyaning shaxs xususiyatlariga muvofiqligi tamoyili, yana bir muhim tamoyillardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu tamoyil CHQBT rahbari va boshqa o'qituvchilar tomonidan har bir o'quvchining shaxsiy sifatleri va xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularga tartibli yondoshishni nazarda tutadi. Bu yerda o'quvchilarning qobiliyatlarini, qiziqish va intilishlarini, ularning ijobiy va salbiy odatlarini o'rganish va ular asosida tarbiya ishlarini olib borish muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa

Ushbu maqoladan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi jarayonida, Yoshlar o'z Vatani va xalqining o'tmishi naqadar buyuk bo'lganligini yaxshi bilib va tushunib olishlari kerak, biz kelajagi buyuk O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, o'lkamizning ana shu buyuk o'tmishi bizga katta ishonch, intilish, qobiliyat va kuch-quvvat baxsh etadi. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi nazariyasining amaliyot bilan bog'liqligi tamoyili, tarbiya jarayonida o'zining muhim o'rniga egadir. Yoshlarga xalqimiz, jamiyatimiz taraqqiyotini yuksaltirish borasida olib borayotgan ishlar, bo'layotgan ulkan o'zgarishlar natijalari va qurilish jatumanida uchrayotgan kamchiliklar haqida to'la ma'lumot berish, ularni xalqimiz amalga oshirayotgan tarixiy, olamshumul mehnat jarayonida jalb qilishda juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi”. O‘zbekiston nashriyoti, 2002.
2. «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi qonun, 2002.
3. «Mudofaa to‘g‘risida»gi qonun 2001 yil 11 may.
4. 2023 – 2027-yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish KONSEPSIYASI Toshkent sh., 2023-yil 29-iyun, 267-son
5. Sh. Tilavoldiyev Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi asoslari fanidan Darslik. Poligraf Super Servis, 2023.
6. «Harbiy Vatanparvarlik Tarbiyasi Nazariyasi» R.Mamajonov.